

## SAVOD O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

*Kurbonova Nasibaxon Ne'matjon qizi,  
Andijon davlat pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
3-bosqich 309-guruh talabasi.*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida savod o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari, amaliy hamda metodik xususiyatlari samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogic yondashuvlar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalari rivojlantirishdagi o'rni ilmiy manbaalar asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar.** *Pedagogik texnologiya, savod o'rgatish, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, innovatsion ta'lim, o'qish ko'nikmasi, metodika.*

**Аннотация.** В данной научной статье анализируются теоретические основы, практико-методические особенности эффективности использования педагогических технологий в процессе обучения грамоте в системе начального образования. Также на основе научных источников освещается роль современных педагогических подходов, интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий в развитии навыков чтения и письма учащихся.

**Ключевые слова:** *педагогические технологии, обучение грамоте, начальное образование, интерактивные методы, инновационное образование, навыки чтения, методология.*

**Abstract.** This scientific article analyzes the theoretical foundations, practical and methodological features of the effectiveness of using pedagogical technologies in the process of teaching literacy in the primary education system. Also, the role of modern pedagogical approaches, interactive methods and information and

communication technologies in the development of students' reading and writing skills is highlighted on the basis of scientific sources.

*Keywords. Pedagogical technology, literacy teaching, primary education, interactive methods, innovative education, reading skills, methodology.*

**KIRISH.** Ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi sharoitida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Savod o'rgatish jarayoni esa o'quvchilarning keying ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur jarayonda samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ilmiy-metodik masala sifatida qaraladi.

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullaridan innovatsion yondashuvlarga o'tish zarurati ta'lim samaradorligini oshirish bilan izohlanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ularni faol ta'lim jarayoniga jalb etish hamda bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda dunyo miqiyosida axborot-kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari shubhasiz mustahkam poydevori yo'lini o'taydi. Boshlang'ich ta'lim standartida o'quvchilarning o'qish malakalarining sifatlari va ijodiy fikrlay olishlari, o'z-o'zini nazorat qila bilishlari, nutq madaniyatini o'zlashtirishlari, husnixat bilan savodli yozish ko'nikmalarini egallashlari alohida qayd etilgan.

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, DTS o'quv dasturining yangi taxriridagi variantlari tajriba sinovidan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogic texnologiyalardan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Savod o'rgatish jarayonining pedagogik-psixilogik asoslari.

Savod o'rgatish jarayoni murakkab psixologik va didaktik jarayon bo'lib, unda o'quvchilarning nutqiy faoliyati, tafakkuri va idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Mashhur psixolog olim Lev.Vygotskiy ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va hamkorlik muhim o'rin tutishini ta'kidlab, „Yangi rivojlanish zonasi” nazariyasini ilgari surgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quvchilar yangi bilimlarni o'qituvchi va tengdoshlari yordamida samarali o'zlashtiradi.

Shuningdek, Jean Piaget ta'limida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilari konkret operatsiyalar bosqichida bo'lgani sababli ko'rgazmali va amaliy metodlar samarali hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati.

Pedagogik texnologiya – bu o'qitish jarayonini aniq maqsad asosida loyihalash, tashkil etish va natijani kafolatlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim jarayonini optimallashtirish hamda o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Savod o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar – interfaol ta'lim texnologiyalari.

Interfaol metodlar o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ular o'quvchilarni dars jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Interfaol metodlarning asosiy turlari:

Aqliy hujum;

Klaster;

Sinkveyn;

BBB metodi ( bildim, bilib oldim, bilmoqchiman)

Rolli o'yinlar;

Munozara va h.k metodlardan iborat.

Mazkur metodlar orqali o'quvchilar tovush va harflarni tezroq o'zlashtiradi, nutqi rivojlanadi hamda ijodiy fikrlash shakllanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Bu texnologiyalar savod o'rgatishda innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Multimediya vositalari yordamida o'quvchilar tovushlarni eshitish, matni ko'rish va interaktiv mashqlarni bajarish orqali bilimlarni samarali o'zlashtiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari:  
Darsning qiziqarli tashkil etilishi;

O'quv motivatsiyasining oshishi;

Individual ta'lim imkoniyati;

Tezkor nazorat va baholash.

Didaktik o'yinlar savod o'rgatish jarayonida samarali vosita hisoblanadi. O'yin faoliyati bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularning psixologik faolligini oshiradi.

Didaktik o'yinlar orqali:

Harf va tovushlarni mustahkamlash;

So'z boyligini oshirish;

Mantiqiy rivojlanishni oshirish mumkin.

Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli ta'lim o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar yangi bilimlarini mustaqil ravishda kashf etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

O'quvchilarning o'qish tezligi va savodxonligi oshadi;

Yozuv malakalari rivojlanadi;

Nutq boyligi kengayadi;

Mustaqil fikrlashi shakllanadi;

Ta'lim sifati samarali tashkil etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Bunday pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori kasbiy mahorat va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Savod o'rgatish jarayonida

o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi- bu o'qituvchining o'quvchilarda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlari, metodik mahorati, psixologik yondashuvi majmuasidir.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, savod o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi – ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni faol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv va innovatsion usullar yordamida dars o'tish nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni ham shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'z kasbiy faoliyatida faol va samarali tarzda foydalanishlari lozim. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirib, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tarzda joriy etish zarur hisoblanadi. Interfaol metodlar o'quvchilarni mustaqil tarzda fikrlashga, o'z fikrini aniq va ravon bayon eta olishga undaydi. Ta'lim tizimida qo'llanilayotgan barcha pedagogik texnologiyalar nafaqat o'quvchilar uchun balki o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida ham, ta'limni sifatini samarali tashkil etishda ham qo'llanilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim- Toshkent, 2021
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent, 2006.
3. Ishmuhammedov R. Innovatsion pedagogic texnologiyalar.- Toshkent, 2017.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent, 2003.
5. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya asoslari.- Toshkent, 2010.
6. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq.- Moskva, 1982

7. [www.google.co.uz](http://www.google.co.uz)

8. [www.ziyoNet.uz](http://www.ziyoNet.uz)